

Chumoli va bug' doy donasi

Hikoya

O'rim-yig' imdan so'ng dalada qolib ketgan bug' doy donasi sabrsizlik bilan yomg'ir yog'ishini kutardi. Yomg'ir tomchilari uni yerga singdirib, qadab qo'ysa edi, eshik qoqib turgan sovuq shamollardan omon qolardi.

Shu yerdan yugurib o'tayotgan chumoli uni ko'rib qoladi. O'ljasini quvonib, o'ylab ham o'tirmay, og'ir bug' doy donini qildek yelkasiga ortqiladi, zo'rg'a-zo'rg'a bosib, chumolilar uyasiga yo'l oldi.

Chumoli qorong'iga qolmay uyiga yetib olayin deb dam olmasdan yo'l bosdi, yelkasidagi yuk esa uni tobora bosib borardi.

Nima uchun bunchalik kuyib-pishib meni olib ketyapsan? Iltimos, shu yerga tashlab ket! - deya yalinib so'radi bug' doy donasi.

Agar seni tashlab ketsam, - dedi chumoli pishnab, qishda yemaksiz qolamiz. Biz - ko'pchilikmiz. Har birimiz qish g'amini yeyish uchun o'z hissamizni qo'shishimiz kerak. Shunda bug' doy donasi o'ylanib qoldi va dedi: Men senday halol mehnatkashning tashvishlarini tushunaman, lekin sen ham mening ahvolimni angla.

Meni e'tibor berib tingla, ey, dono chumoli!

Chumoli bir pas charchog'ini yozib olish uchun to'xtadi, yelkasidagi yukni yerga tushirdi, o'tirdi.

Yaxshilab bilib ol, - dedi bug' doy donasi. - Menda juda katta kuch mavjud. Mening qismatim - yangi hayotni dunyoga keltirishdir. Kel, ikkalamiz bitim tuzamiz.

- Yana qanaqa bitim?

- Agar meni chumolilar uyasiga olib bormasang, dalamda ketsang, - deya tushuntirdi bug' doy donasi, - bir yil o'tgach, seni taqdir layman.

Hayron bo'lib turgan chumoli ishonqiramay boshini chayqadi.

- Menga ishon, qimmatli do'stim, men senga asl haqiqatni aytayapman. Agar meni tashlab ketib, sabr qilsang, men sabringni ortig'i bilan mukofotlayman. Shunda uying bug' doyga to'lib ketadi. Sen bil bug' doy donasi o'miga yuzta bug' doy donasi olasan.

Chumoli boshini qashlab, o'ylab qoldi: «Bittasinin o'miga - yuzta. Bunday mo'jizalar faqatgina ertaklar bo'ladi».

- Buni qanday qilmoqchisan? - dedi ham qiziqi ham gumonsirab chumoli.

- Bu - hayotning buyuk siri. Kichkina yemi qazib, meni o'sha yerga yashirib qo'y. Yozda yana shu yerga qaytib kel.

Chumoli yozda dalaga qaytdi. Bug' doy dona va'dasining ustidan chiqdi.

Leonardo da Vinchi.
Zumrad Tomchilar kitobi.